

XX ASRNING 70-YILLARIDA SHAKLLANGAN “YANGI TO‘LQIN” RASSOMLARI IJODINING O‘ZIGA XOSLIGI

Usmonxonova Rohila Akrom qizi

Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy Rassomlik va dizayn instituti

San’at nazariyasi va tarixi (tasviriy va amaliy san’at)

mutahassisligi 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston rangtasvirida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan XX asrning davrlashtirilishi va bu davrlar ichida 1970-yillar avlodining ahamiyati yoritilgan. Unda ijod maydoniga kirib kelgan ijodkorlar faoliyati va ularning o‘ziga xos jihatlari bayon etiladi.

Kalit so‘zlar: rangtasvir, realism, syurrealizm, konsepsiya, “Yangi to‘lqin”.

Abstract: This article describes the periodization of the 20th century, which is important in the painting of Uzbekistan, and the importance of the generation of the 1970s in these periods. It describes the activities of artists who entered the field of creativity and their unique aspects.

Key words: painting, realism, surrealism, concept, "New wave".

XX asr boshlarida dastgohli va mahobatli rangtasvir, haykaltaroshlik, grafika, teatr, balet, simfonik musiqa, kino, televideniya va boshqa sohalarda yangi Yevropa shakllarining paydo bo‘lishi san’at, madaniyat va mahalliy xalq ongining tubdan o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Butun XX asr davomida san’atda g‘arb shakllari ta’siri kuzatiladi.

XIX-XX asr tasviriy san’at paydo bo‘lish tarixi va rivojlanishini shartli ravishda 3 tarixiy bosqichga ajratishimiz mumkin.

Birinchi bosqich – XIX asr oxiri – XX asr boshlarida yangi tasviriy san’at Turkistonni zabt etish jarayonida o‘lkaning yetakchi shaharlariga kirib borib, Yevropa estetika shakllarini shakllantirish maqsadida bir qancha kichik mahalliy markazlarni tashkil eta boshlaydi.

Ikkinchi bosqich – 1920-1980-yillar – bu davr milliy respublikalarning tashkil topishi va ularning unitar davlat tarkibiga kirishi bilan bog‘liq. Bu davrda tasviriy san’atning yangi janrlari va uslub modellari paydo bo‘ladi va shakllanadi. Tasviriy san’at uslublarining rivojlanish dinamikasi ijtimoiy –siyosiy va mafkuraviy omillarga asoslanadi. 1920- 1930-yillar boshlarida O‘zbekiston rassomlari ijodi sharqona ekzotika estetikasi bilan to‘lgan bo‘lsada, 1930-yillarning ikkinchi yarmidan to 1970-80-yillarga qadar sotsialistik realizm talablari bilan ma’lum darajada uyg‘unlashgan tasvirlash uslubida ijod qildilar.

Uchinchi bosqich – 1990-yillar - O‘zbekistonning mustaqillikka erishganligi va jamiyat hayotining barcha jabhalarida, jumladan, san’at va madaniyat sohasida ham mustaqil siyosat olib borilayotgan davr. O‘z milliy tarixi va madaniy merosiga yangi, o‘zgacha hurmat bilan munosabatda bo‘lish xalq madaniyati va san’atiga yangicha munosabatning shakllanishiga yordam berdi. Tasviriy san’atda ijodiy fikr erkinligi davri boshlanadi, rassomlar davlat senzurasini nazorati va sotsialistik realizmning qat’iy cheklangan chegaralarida ishlash zaruratidan xalos bo‘ladilar. San’atda stilistik plyuralizm mavjud, avangard yo‘nalishlari paydo bo‘ladi.

O‘zbek rangtasvirida 70-80-yillar san’ati o‘zining tubdan burilishlari, rassomlarning jahon san’atiga bo‘lgan qiziqishlari, yangicha plastik-ifodaviy vositalaridagi izlanishlari, 20-30-yillar avangardiga qayta murojaat etishlari bilan alohida o‘rin egallaydi. Bu davrda ijod maydoniga kirib kelgan Javlon Umarbekov, Bahodir Jalolov, Shuhrat Abdurashidov, Alisher Mirzayev, Mashud Toxtaev kabi rassomlar “Yangi to‘lqin” rassomlari sifatida e’tirof etiladilar. Ular milliy o‘ziga xoslik tamoyillari haqidagi g‘oyalarni yangicha talqinda jasorat bilan namoyish eta oldilar. 70-yillar avlodi vakillari an’analarni idrok etishning yangi konsepsiyasini talqin etdilar. Ular ko‘plab milliy maktablarning qolipga solingan va dabdabali qahramonlar tasviriga

qarshi o‘zlarining munosabatlarini bildirdilar. Bu avlod vakillarining ijodida biz bir qancha an’analarning o‘ziga xos sintezini ko‘rishimiz mumkin. Rassomlar an’analar va davomiylik bilan bog‘liq odatiy paradigmani qayta ko‘rib chiqish, mahalliylikning tor doirasidan G‘arb va Sharq madaniyatlari o‘rtasidagi erkin muloqotga chiqish uchun yangi g‘oyalarni qidirdilar.

70-yillarda ijod maydoniga kirib kelgan va bugungi kunga qadar o‘zbek rangtasvirida o‘zining uslubiga ega ijodkor Javlon Umarbekov hisoblanadi. Bugungi kunda ko‘plab yosh rassomlarga rangtasvir sirlarini o‘rgatib kelayotgan ijodkor asarlari nihoyatda ranbarang. Uning talabalik davrida yaratgan asarlariyoq tomoshabinlar diqqatiga sazovor bo‘lgan. Uning 1971-yilda yaratgan “Mening do‘stim” nomli kartinasi esa rassomning o‘z uslubi va yo‘nalishga ega mahoratli ijodkor sifatida tanitdi. Mazkur kartinada ijodkor shakl va makonni sharq an’analari kontekstida o‘zining yorqin uslubi va zamonaviy ko‘rinishda ifodalab beradiki, bu o‘zbek tomoshabinlari uchun kutilmagan va yangicha ko‘rinish bo‘ldi. Mazkur kompozitsiya ixcham qurilgan bo‘lib, unda yosh o‘smir yigit, buvi qo‘lida go‘dak nabirasi bilan tasvirlangan. Tinch, osuda hayot kechirayotgan insonlar gavdalantirilgan. O‘smir yigitning ilmga va ijodga qiziqishi, bo‘lajak ijodkor ekanligini biz jurnal va rasmlar to‘plami orqali bilishimiz mumkin. Rassom voqelikni o‘zgacha estetik talqin etadi va bu an’analarni idrok etishning yangicha konsepsiyasini aks ettiradi. Rassom o‘zining asarlarida G‘arb va Sharq an’alarining sintezini namoyish etdi. Umarbekov ijodining dastlabki yillarida Qadimgi Rus ikonalarini, Sharq miniatyuralari, Ajanta devoriy suratlariga, shuningdek, O‘zbekistonning 1920-1930-yillardagi rangtasviriga murojaat etadi. Jahon merosining buyukligi, uning ma’naviy ildizlariga daxldorlik g‘oyasi D.Umarbekovning “Men odamman” va “Ongli inson” monumental kartinalarida ochib berilgan.

Yana bir 70-yillar avlodining vakillaridan biri Mashud To‘xtaevdir. Mashud Toxtaev ijodi nimasi bilan o‘ziga jalb etadi? Bu yerda biz rassom ijodida namoyon bo‘lgan chuqur falsafiy ko‘z qarashi, ijtimoiy mavzularni zamonaviy vositalar orqali talqin etishi, asarlarda kompozitsion va koloristik yechimni tog‘ri hal etishi, asarlardagi

chizgilarning murakkabligi bilan ajralib turishiga guvoh bo‘lamiz. Rassom o‘z ijodiy yo‘nalishi bilan O‘zbekistonda ilk postmodernist ijodkorlardan biri bo‘lib hisoblanadi. Agar uning ijodiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, rangtasvirda, shuningdek qalamtasvirda ham o‘ta mahorat bilan ijod qilganligini, portret va natyurmortlarni o‘zgacha yondashgan holda, yangicha texnikada ishlaganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. 1970-yillarda tasviriy san‘atga kirib kelgan yosh, navqiron rassomlarning barchasi o‘zlarining yo‘nalishlarini izlab, tanlab oladilar, shular qatorida Mashud Toxtayev ijodiga katta ta‘sir ko‘rsatgan, zamonamizning mashxur ispan rassomi Salvador Dalining ta‘sirida u syurrealizm va gipperrealizm yonalishiga kirib boradi. O‘zbekistonlik mashxur tarixchi va arxeolog Vladimir Karasyevning aytishiga qaraganda:- O‘zbekistondagi ijodkorlar hali Salvador Dalini va syurrealizm oqimiga mansub bo‘lgan asarlarni ko‘rishmagan, lekin uning nomini faqatgina eshitgan vaqtlarida, Mashud Toxtayev mohir yuvelir Nepomyashniyning uyida Salvador Dalining albomini ko‘radi va uni qandaydir titroq bosadi. Dalining qandaydir sexrli ijodi uni o‘ziga jalb etadi. Ko‘plab ijodkorlarni hayratga solib qo‘ygan asarlar uni tark etmaydi. Bir so‘z bilan aytganda Mashud Dalining ijodi bilan yashaydi va o‘zi ham ijodini syurrealizmda davom ettira boshlaydi. Rassom ijodining yana bir qirradi gipperrealizm yo‘nalishiga olib kiradi. Ijodkor 1980-yili Senejga tashrif buyuradi va u yerda Moskvalik giperrealistik oqimi vakillaridan Petrov, Volkov, Bazelev, Sherstyuklarning ijodlari bilan tanishadi. Bu yo‘nalishga mansub bo‘lgan kartinalariga “Oq natyurmort” (1984), “Qumg‘on bilan natyurmort” (1987) kabi asarlarini kiritishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Ахмедова Н. “Неизведанный путь”. Т.: 2015
2. Ахмедова Н. “Живопись Центральной Азии XX века: традиции, самобытность, диалог”. Т.:2004
3. Ne‘mat Abdullayevning “O‘zbekiston san‘ati tarixi”. Т.: 2007